

**DAVLAT FUQAROLIK XIZMATINI TAKOMILLASHTIRISH DAVLAT BOSHQARUVI  
SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10589545>

**Ayapbergenov Maxsud Maxmud uli**

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti  
stajer-o'qituvchisi*

**.Annotatsiya:** *Ushbu maqolada, davlat fuqarolik xizmatini takomillashtirishning asosiy omili bo'lgan "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi, ushbu qonunda ko'rsatilgan davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy maqomi, davlat fuqarolik xizmatchilarini huquqiy va ijtimoiy himoya qilish hamda davlat fuqarolik xizmati tizimida qabul qilingan yangi chora-tadbirlar haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *davlat fuqarolik xizmati, davlat reyestri, huquq va majburiyatlar, cheklovlar, javobgarlik, korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurash, meritokratiya, huquqiy himoya qilish, ijtimoiy himoya qilish.*

Jahon hamjamiyatida rivojlanayotgan davlatlar qatorida O'zbekiston Respublikasi ham yetakchi o'rinda ildam qadamlar bilan bosqichma-bosqich o'zining taraqqiyot yo'lidan ketmoqda. Ushbu davrga kelib davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, davlatning eng muhim va asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqsadga davlatimiz boshqaruv sohasidagi ayrim kamchiliklarni bartaraf etish orqali erishib kelmoqda. Hozirgi kunga qadar mamlakatimizda davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirish borasida qonunchilik bilan davlat fuqarolik xizmatchilariga belgilangan mezonlar, nomzodlarni ochiq saralab olishda shaffof mexanizmning mavjud emasligi, ularning faoliyatini baholash jarayonlari, ularni tayyorlash va qayta tayyorlash tartiblari belgilanmagan edi. Mazkur kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5843-sonli Farmonida davlat fuqarolik xizmatini tashkil etish bo'yicha konseptual talablar hamda tashkiliy-huquqiy asoslari inobatga olgan holda "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 8-avgust kuni "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonunni imzoladi. Ushbu qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2-martadayoq qabul qilingandi, Senat esa 28-mayda ma'qullab bergandi. Qonun oradan 3 oy o'tgach kuchga kirdi. Qonun davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri bo'lib, bugungi kunda xizmat qilib kelmoqda.

Davlat fuqarolik xizmati – davlat xizmatining bir turi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining davlat fuqarolik xizmati lavozimlaridagi davlat organlari vakolatlari amalga oshirilishini ta'minlashga doir haq to'lanadigan kasbiy faoliyatini anglatadi.

Davlat fuqarolik xizmatchilari bu – davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining reystriga kiritilgan davlat xizmatchilaridir.

“Davlat fuqarolik xizmati to’g’risida”gi qonunning 3-moddasida kimlar davlat fuqarolik xizmatchilari ekanligi ko’rsatilgan.

Ushbu qonunning amal qilishi:

“O’zbekiston Respublikasi Prezidentining, O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlarining va Senati a’zolarining, Qoraqalpog’iston Respublikasi Jo’qorg’i Kengesi hamda boshqa mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining, O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati devonlari xodimlarining, O’zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi a’zolarining, sudyalarning va sud tizimi xodimlarining, O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi a’zolarining, prokuratura, ichki ishlar, mudofaa ishlari, favqulodda vaziyatlar, O’zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Davlat bojxona xizmati, Davlat xavfsizlik xizmati va O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmati organlarida xizmatni o’tayotgan davlat xizmatchilarining, shu jumladan harbiy xizmatchilarning;

davlat organlarining texnik, ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish xodimlarining faoliyatiga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Ushbu Qonunning 24 va 43-moddalari diplomatiya xizmati xodimlariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Ushbu qonunning 43-moddasi O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki xodimlariga tatbiq etilmaydi.”

Davlat fuqarolik xizmatiga davlat tilini biladigan, davlat fuqarolik xizmati lavozimlarini egallash uchun tegishli malaka talablariga va boshqa talablarga javob beradigan O’zbekiston Respublikasi fuqarolari qabul qilinadi. “Davlat fuqarolik xizmati to’g’risida”gi qonunda fuqarolarning davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilish shartlarida fuqarolarning malaka talablari va boshqa talablarga ega bo’lishi haqida aytilgan bo’lsada, lekin ushbu malaka talablari va boshqa talablar aynan nimalardan iborat ekanligi haqida aniq ma’lumot berilmagan.

Hozirgi kunda davlat organlari va tashkilotlarda 118 ming nafardan ortiq davlat fuqarolik xizmatchilari faoliyat yuritib kelmoqda.

Qonunga muvofiq, davlat fuqarolik xizmati sohasidagi maxsus vakolatli organ etib Prezident huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi belgilanmoqda. U o’z vakolatlari doirasida davlat idoralarning kadrlar siyosati sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi, davlat xizmatiga kadrlarni tanlov asosida tanlashni tashkil qiladi, davlat xizmatchilarining samaradorligini baholash uchun indikatorlar (asosiy ko’rsatkichlar) tizimini joriy qiladi va ularning natijalarini tahlil qiladi, jamoatchilik fikrini o’rganadi va davlat organlari rahbarlarining ochiq reytingini shakllantirishda ishtirok etadi.

Shuningdek, agentlik davlat xizmatchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda hamda ularning ishlashi va ijtimoiy himoyasi uchun tegishli shart-sharoitlar yaratishda yordam ko’rsatadi.

Davlat fuqarolik xizmatchilarining kasbga oid sifatlari va alohida xizmatlarini obyektiv va oqilona baholash asosida xizmat pog'onalari bo'yicha o'sishi (meritokratiya) ahamiyatli jihatlardan biri hisoblanadi.

Qonun bilan davlat fuqarolik xizmatchilarining lavozimlari "siyosiy" (vazir, rais, direktor va boshqa), "boshqaruv" (departament, boshqarma va bo'lim boshliqlari) va "yordamchi" (mutaxassis, inspektor va konsultantlar) guruhlarga bo'linmoqda.

Birinchidan, ularga tayinlanishning aniq qoidalari belgilanmoqda, shunga ko'ra, davlat fuqarolik xizmatiga ilk marotaba kirayotgan nomzodlar ochiq mustaqil tanlov asosida "yordamchi" guruhga mansub lavozimlarni egallaydilar;

Ikkinchidan, davlat fuqarolik xizmatida xizmat pog'onalarida ko'tarilish ichki tanlovlar asosida amalga oshiriladi;

Uchinchidan, "boshqaruv" guruhiga mansub lavozimlarni egallagan davlat fuqarolik xizmatchilari kelgusida "siyosiy" lavozimlarga tayinlanish uchun milliy kadrlar zaxirasiga kiritiladi;

To'rtinchidan, "yordamchi" guruhiga mansub eng quyi lavozimdan tashqari barcha lavozimlarni egallashning asosiy sharti bu - malaka oshirish sertifikatiga ega bo'lish, ya'ni tegishli bilim va ko'nikmalarni shakllantirish qonun bilan belgilanmoqda;

Beshinchidan, uzluksiz kompetensiyalarini oshirib borish barcha darajadagi davlat fuqarolik xizmatchilari uchun majburiy etib belgilanmoqda.

"Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonunda davlat fuqarolik xizmatchilarining asosiy huquqlari, davlat xizmatini o'tash faoliyatidagi majburiyatlari, davlat fuqarolik xizmatini o'tash bilan bog'liq cheklovlar aniq belgilab qo'yildi.

Davlat fuqarolik xizmatchisi o'z vaqtida va to'liq hajmda ish haqi olish, kasbiy kompetensiyalari va alohida xizmatlari uchun rag'batlantirish, muntazam ravishda malakasini oshirib borish, mehnat shartnomasiga o'zgartishlar kiritish va shartnomani bekor qilish, lavozim yo'riqnomasi va boshqa hujjatlar bilan tanishish, dam olish, huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinish, davlat pensiya ta'minotini olish, qonunchilikda belgilangan tartibda davlat fuqarolik xizmatini o'tash vaqtida yetkazilgan moddiy zararining o'rni qoplanishi va ma'naviy ziyonning kompensatsiya qilinishi, davlat fuqarolik xizmati masalalari yuzasidan maxsus vakolatli davlat organiga murojaat qilish shuningdek boshqa qonunchilikda belgilangan huquqlarga ega.

Davlat fuqarolik xizmatchisi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa qonunchilik hujjatlariga rioya etishi, o'z xizmat majburiyatlarini vijdonan bajarishi, odob-axloq qoidalariga rioya etishi, xizmatni o'tash bilan bog'liq cheklovlarga rioya etishi, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymasligi, davlat organining nufuzini tushirishga olib kelishi yoki uning o'z xizmat majburiyatlarini vijdonan bajarishiga shubha tug'dirishi mumkin bo'lgan harakatlardan (harakatsizlikdan), shu jumladan o'z xizmat majburiyatlarini bajarayotganda har qanday shakldagi kamsitishdan, noxolislikdan yoki kimgadir nisbatan alohida munosabatda bo'lishdan tiyilishi, davlat sirlarini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlarni muhofaza qilish to'g'risidagi talablarga rioya

etishi, qonunda belgilangan muddatlarda va tartibda daromadlari va mol-mulki to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etishi, davlat mulkining but saqlanishini ta'minlashi, o'ziga ishonib topshirilgan davlat mulkidan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi, o'zining kasbiy kompetensiyasini muntazam ravishda oshirib borishi shart. Davlat fuqarolik xizmatchilariga qonunchilikka belgilangan boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Davlat fuqarolik xizmatchisiga qo'yilgan cheklovlar: o'zaro yaqin qarindosh bo'lgan shaxslar bilan aynan bitta davlat organida xizmat qilishi, pedagogik, ilmiy va ijodiy faoliyatdan tashqari haq to'lanadigan boshqa faoliyat bilan shug'ullanish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish, o'z xizmat vakolatlarini jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini ko'zlab bajarish yoki bajarmaslik evaziga ulardan biron-bir mukofot, foyda yoki sovg'alar olishga, chet davlat fuqaroligini olishga, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida hisobvaraqlar ochishga va ularga ega bo'lishga, ko'chmas mulkka va boshqa

mol-mulkka egalik qilishga, o'zining vakolatlarini siyosiy partiyalarning, boshqa jamoat birlashmalarining va ular organlarining manfaatlarini ko'zlab amalga oshirishga va boshqalar.

Davlat fuqarolik xizmatchisining yuqoridagi cheklovlarga rioya etmasligi, intizomiy yoki boshqa turdagi javobgarlikning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Korrupsiya – jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkizadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi.

“Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida”gi qonunda korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar aniq belgilandi:

“davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo'l qo'yilmasligi;

davlat fuqarolik xizmatchilarining odo-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash;

davlat fuqarolik xizmatchisining manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va hal qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini yaratish, ularga rioya etilishi ustidan monitoring va nazorat o'tkazilishini ta'minlash;

davlat fuqarolik xizmatchisining daromadlari va mol-mulkini deklaratsiyalash tizimini joriy etish;

davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan sovg'alar olish va berish tartibini belgilash;

davlat fuqarolik xizmatchisining ijtimoiy jihatdan himoya qilinishini, moddiy ta'minot olishini va rag'batlantirilishini ta'minlash.

Qonunchilikda davlat fuqarolik xizmati sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir boshqa chora-tadbirlar ham nazarda tutilishi mumkin ”

Davlat fuqarolik xizmatchilari huquqiy jihatdan himoyalangan bo'lib, ular davlat organlarining noqonuniy harakatlari va qarorlari ustidan yuqori turuvchi organga, maxsus vakolatli organga yoki sudga murojaat qilish huquqiga ega.

Davlat fuqarolik xizmatchilarini ijtimoiy jihatdan himoya qilish:

mehnat ta'tili va ijtimoiy ta'tillar berish;

hayoti va sog'lig'ini majburiy sug'urta qilish;

hayotiga, sog'lig'iga va mol-mulkiga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash;

davlat pensiya ta'minoti.

Davlat fuqarolik xizmatchisiga quyidagi ijtimoiy himoya choralari kafolatlanadi:

tibbiy xizmat ko'rsatish;

rotatsiya tartibida boshqa davlat fuqarolik xizmati lavozimiga o'tkazilishi bilan bog'liq xarajatlarning, shu jumladan yashash va transport xarajatlarining o'rnini qoplash;

xizmat uy-joylari, xizmat transporti bilan yoki uy-joy va transport xarajatlari uchun pulli kompensatsiya bilan qonunchilikda belgilangan hollarda hamda tartibda ta'minlash.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunga qadar davlat fuqarolik xizmati sohasida eng asosiy muammolardan biri bu malakali kadrlarni yetishmasligi, kadrlarni joy-joyiga qo'yishda shaffof tizim mavjud emasligi yoki sifatsiz ekani hamda bu sohaga, umuman davlat fuqarolik xizmati sohasida tanish-bilishchilik, qarindosh-urug'chilik avj olib ketgan edi. Mana shunga o'xshash muammolarni bartaraf etish maqsadida hamda davlat fuqarolik xizmatida haqiqiy malakali xalq uchun xizmat qiladigan tizimni shakllantirish maqsadida davlat fuqarolik xizmati tizimida yagona qonunchilik hujjatining qabul qilinishi, ushbu tizimdagi muammolar va kamchiliklarning bartaraf etilishiga yechim bo'lib xizmat qildi. Ushbu qonunda korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarining alohida bob sifatida kiritilganligi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat siyosatining yanada rivojlanishiga hamda davlat boshqaruvi samaradorligining o'sishiga olib keladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 08.08.2022 yildagi "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonun URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6145972>
2. Xojiev E.T. Davlat xizmati : o'quv qo'llanma/ E.T.Xojiev, G.S. Ismailova, M.A. Rahimova. – Toshkent: Baktaria press,2015. – 172b.
3. ЭХ Эгамбердиев, Ф Кутлымуратов Расторжение брака в органах загс при взаимном согласии супругов. Хабаршысы 4 (103), 4 15 2019
4. KF Kalbaevich Creditor's approval for "transferring debt" and problems of its processing. Thematics Journal of Law 5 (9) 6 2021
5. KF Kalbaevich PROTECTION OF CREDITORS'RIGHTS-AS A CIVIL LAW SUB INSTITUTION WHILE REORGANIZING COMMERCIAL LEGAL ENTITIES. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities 1 (1.4 Legal ... 6 2021
6. АО Жуманов, Ф Цутлымуратов ФУЦАРОЛАРНИНГ МАРКАЗЛАШГАН ТАРТИБДА МАИШИЙ ВА ИЧИМЛИК СУВДАН ФОЙДАЛАНИШИДА ДУЦУЦИЙ МАСАЛАЛАРНИНГ ТАДЛИЛИ ХАБАРШЫСЫ, 129 5 2017
7. FK Kalbaevich Legal Entities–As Subjects of Civil Law. Periodica Journal of U Nadirbekova, R Bayjanova, F Kutlimuratov Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities 8, 57-594 2022

8. Ф Қутлымуратов issues of formation of legislation in the Republic of Uzbekistan, Which will radically improve the activities of the legal service Евразийский журнал академических исследований 2 (6), 471-474 4 2022
9. Қайта ташкил этилаётган юридик шахс каредиторлари ҳуқуқларини кафолатлари Жамият ва бошқарув 93 (3), 31-37 4 2021
10. ФК Қутлымуратов ҚАЙТА ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ АЛОҲИДА ШАКЛЛАРИДА ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ МАЖБУРИЯТЛАРИНИНГ ЎЗГАРИШИ ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ 7 (1) 2022
11. K F.K. THE EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES IN PROTECTING THE RIGHTS OF CREDITORS DURING THE REORGANIZATION OF LEGAL ENTITIES Science and Education in Karakalpakstan 17 (2), 91-94 2021
12. Ф Қутлымуратов ЮРИДИК ШАХСНИ ҚАЙТА ТАШКИЛ ЭТИШНИ ҲАҚИҚИЙ ЭМАС ДЕБ ТОПИШ. ОДИЛ СУДЛОВ, 14-16 2021
13. Қ Бабаназаров, Ф Қутлымуратов, М Тлеумуратов РАДИАЦИЯ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАРТИБГА СОЛУВЧИ ХАЛҚАРО ҲУҚУҚ МАНБАЛАРИ ВА УЛАРНИ МИЛЛИЙ ҚОНУН ҲУЖЖАТЛАРИГА ТАТБИҚ ҚИЛИШ МАСАЛАЛАРИ. ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА 29 (4 ... 2015
14. Ф Қутлымуратов, Н Қутлымуратова ЕР ЖЕТПЕГЕНЛЕР ОРТАСЫНДА ҚАРАҰСЫЗЛЫҚ ҲӘМ ҲУҚЫҚБУЗЫҰШЫЛЫҚТЫҢ АЛДЫН АЛЫҰ ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА 26 (1 ... 2015
15. ИЗ Қутлымуратов Ф К БАЗАР ҚАТНАСЫҚЛАРЫ ШӘРАЯТЫНДА ХОЖАЛЫҚ ШИРКЕТЛЕРИ ҲУҚЫҚЫЙ СТАТУСЫНЫҢ АЙЫРЫМ МӘСЕЛЭЛЕРИ ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА 25 (4 ... 2014
16. ТМБ Қутлымуратов Ф, З Исмаилова МИЙНЕТ ҲУҚЫҚЫНДА ЖУМЫССЫЗЛЫҚ ТНСИНГИ ҲӘМ ОНЫҢ ҲУҚЫҚЫЙ СЫПАТЛАМАСЫ. ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА 23 (2 ... 2014